

“Bank xizmatlari iste’molchilari bilan o‘zaro munosabatlarni amalga oshirishda tijorat banklarining faoliyatiga qo‘yiladigan minimal talablar to‘g‘risida”gi nizomga
3-ilova

**“Premium” muddatli omonatning asosiy shartlari to‘g‘risidagi axborot
VARAQASI***

Tijorat bankining nomi, rasmiy veb-sayti, telefon raqamlari	AT Xalq banki www.xb.uz 71 210-20-02 yoki qisqa raqami 1106
---	---

1-bo‘lim. Omonatning asosiy shartlari

1. Omonat nomi	“Premium”
2. Omonatning valyutasi	Milliy valyuta (so‘m)
3. Omonat bo‘yicha yillik foiz stavkasi (agar omonat bo‘yicha yillik foiz stavkasi differensiallashgan yoki omonatni rasmiylashtirish usuliga bog‘liq bo‘lsa, har biri alohida ko‘rsatiladi)	18% (yillik) Bank ofisi hamda “xazna” mobil ilovasi orqali
4. Omonat bo‘yicha hisoblangan foizlarni kapitalizatsiyasi mavjudligi (hisoblangan foizni asosiy mablag‘ga qo‘shib qayta foiz hisoblash)	Mavjud emas
5. Omonatning muddati	18 oy
6. Omonatga qo‘yiladigan mablag‘ning eng kam miqdori (agar mavjud bo‘lsa)	10 000 000 (o‘n million) so‘m
7. Omonat bo‘yicha foizlarni to‘lash davriyligi	Hisoblangan foizlar oyda bir marta to‘lanadi
8. Omonatni rasmiylashtirish usuli (onlayn yoki bankka tashrif buyurish orqali)	Onlayn tartibda yoki bankka tashrif buyurgan holda rasmiylashtirish mumkin
9. Qo‘shimcha mablag‘ kiritish imkoniyati	Mavjud
10. Avtouzaytirish (omonat muddati tugaganda omonat muddatini bank tomonidan bir tomonlama uzaytirish)	Mavjud (bir marotaba)
11. Boshqa shartlar	Omonat hisob raqamidagi debet aylanma chegara miqdori - 10 000 000 000 (o‘n milliard) so‘mdan oshmasligi lozim.

2-bo‘lim. Boshqa muhim shartlar

1. Omonatga qo‘yilgan pul mablag‘larini omonat muddati tugagunga qadar qisman yechib olish imkoniyatining mavjudligi	Ruxsat beriladi (bunda, omonatdagi qoldiqning eng kam miqdori kamida 10 000 000 so‘mni tashkil qilishi kerak. Agar hisoblangan foizlar eng kam miqdoridan (10 000 000 so‘mdan) ko‘p
--	---

	bo'lsa, omonat muddatidan oldin yechib olinsa ushbu hisoblangan foizlar omonat qoldig'ining asosiy summasidan olib qolinadi).
2. Omonat shartnomasini muddatidan oldin bekor qilish tartibi	Omonat mablag'lari saqlanish muddatidan oldin olingan hollarda, to'lab berilgan foizlar omonatning asosiy summasidan yechib olinadi.

Omonat qo'yishga rozi bo'lishdan oldin diqqat bilan o'rganib chiqing!

Siz omonatning shartlari, daromadlar va omonat bo'yicha hisob-kitoblar tartibi to'g'risida, shuningdek huquqlaringiz va majburiyatlaringiz, Sizga tushunarsiz bo'lgan boshqa masalalar yuzasidan bankdan to'liq va batafsil ma'lumot olishga haqlisiz.

Agar Sizda shikoyatlar mavjud bo'lsa, u holda Siz murojaatingizni +998 71 210-20-02 raqamli telefonga yoki Toshkent sh. Qatortol ko'chasi, 46-uy manzilga yoki www.xb.uz elektron manzilga jo'natishingiz mumkin.

**AXBOROT VARAQASINING TO'G'RILIGI
VA HAQIQIYLIGI TASDIQLANADI.**

(bank mutaxassisining F.I.Sh. va lavozimi)

To'ldirilgan sana

* Mazkur varaqa omonat shartnomasi yoki omonat olish uchun buyurtmanoma o'rnini bosmaydi, aksincha turli banklarning omonat shartlarini taqqoslashga va kerakli tanlovni amalga oshirishga yordam beradi.